



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



"INTERNATIONAL HOUSE LYCEUM"

O'rta maxsus ta'lim tashkiloti

3910002 – Aniq fanlar (matematika, xorijiy til)

O'rta maxsus ta'lim



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

3910002 – Aniq fanlar (matematika, xorijiy til)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**“INTERNATIONAL HOUSE LYCEUM”
NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)


EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: Maxmudov Furqat Djumaboyevich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali akademik litseyi

Falsafa doktori (PhD)



A'zo: Dustmurodova Zilola Xaqnazarovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti akademik litseyi

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAA260005
Xulosa raqami	858
Xulosa sanasi	15.06.2026-yil
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	«INTERNATIONAL HOUSE LYCEUM» nodavlat ta'lim muassasasi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Mashinasozlar MFY, Yangibozor ko'chasi, 1-a-uy. Litsenziya: L-44092833, 26.12.2025. Guvohnoma: MAS № 0000176, 19.06.2026
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Aniq fanlar (matematika, xorijiy til)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	3910002
Akkreditatsiya usuli	Joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	L-44092833 / 26.12.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	O'rta maxsus ta'lim
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	3910002 – Aniq fanlar (matematika, xorijiy til)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	3910002 – Exact sciences (Mathematics, Foreign language)
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	3910002 – Точные науки (математика, иностранный язык)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	rus
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	3-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	—
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	758 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Mashinasozlar MFY, Yangibozor ko'chasi, 1-a-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*	Muvofiq
1.2.	ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;	Muvofiq
1.3.	ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki;	Muvofiq
1.4.	mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, davlat ta'lim standarti (DTS) va milliy malakalar ramkasi (MMR) talablariga muvofiqligi;*	Muvofiq
2.2.	manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani va tasdiqlangani;	Muvofiq
2.3.	ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligining ta'minlangani;	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*	Muvofiq
3.2.	o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*	Muvofiq
3.3.	o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;	Muvofiq
3.5.	ta'lim dasturi doirasida o'quvchilar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;	Muvofiq
3.6.	o'quvchilarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;	Muvofiq
4.	O'quvchilar faoliyati	Muvofiq
4.1.	ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;	Muvofiq
4.2.	qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.4.	<i>o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim tashkilotidagi o'quv va laboratoriya xonalarining ta'lim dasturiga mosligi, o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan jihozlangani;</i>	Muvofiq
6.2.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli miqdorda moddiy-texnik baza, jihozlar, asbob-uskunalar va reaktiv moddalar hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>o'quv va laboratoriya xonalarining ta'lim dasturlariga mosligi, xavfsizlik qoidalari va o'quvchilar sonidan kelib chiqib jihozlangani;*</i>	Muvofiq
6.5.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.6.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
6.7.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, Wi-Fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.8.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Ta'lim tashkilotida 3910002 – Aniq fanlar (matematika, xorijiy til) ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv, me'yoriy-huquqiy, moddiy-texnik va uslubiy shart-sharoitlar yaratilganligi aniqlandi. Kafedralar faoliyatini tashkil etish, ularning vakolatlari va funksiyalarini belgilash hamda moddiy-texnik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha tegishli me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan 3 yillik "Istiqbolli reja" tasdiqlangan bo'lib, unda aniq vazifalar, amalga oshirish mexanizmlari, muddatlar va mas'ul ijrochilar belgilangan.

Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi shakllantirilgan: ichki baholash tartibi, o'quvchilar bilimni nazorat va monitoring qilish tizimi hamda ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi faoliyati yo'lga qo'yilgan, monitoring natijalarini tahlil qilish va ulardan ta'lim dasturlarini takomillashtirishda foydalanish bo'yicha tizimli yondashuv joriy etilgan. Mazkur yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Ta'lim tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan ishchi o'quv reja va fan dasturlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari, Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Respublika ta'lim markazi tomonidan tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturlari asosida, fanlarning bosqichma-bosqich o'qitilishi, yo'nalishlar o'rtasidagi uzviylik va fanlararo integratsiya tamoyillariga muvofiq shakllantirilgan.

O'quv yuklamasi nazariy, amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'lim shakllari o'rtasida muvozanatli taqsimlangan, o'quv reja 2 yillik o'qish muddatiga mo'ljallangan holda semestrlar va haftalar kesimida tizimli rejalashtirilgan. "Ma'lumotlar bilan ishlash madaniyati", "Iqtisodiyot nazariyasi" hamda "Texnik dasturchi" kabi fanlar orqali amaliy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, fan dasturlarining amaliy mosligi bo'yicha ayrim jihatlar yetarlicha asoslanmagan va batafsil tahlil qilinmagan. Mazkur yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Ishchi o'quv reja, fan dasturlari hamda ta'lim jarayonini tashkil etish holati amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv rejalar hamda yuqori turuvchi tashkilot qarorlari va tavsiyalari asosida kompleks tarzda o'rganildi.

O'quv yuklamalarining tarkibiy qismlar o'rtasida mutanosib taqsimlanganligi, fanlar kesimida nazariy, amaliy, laboratoriya, seminar va mustaqil ta'lim soatlari belgilangan me'yorlar asosida tashkil etilganligi aniqlandi. Ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda mehnat bozori ehtiyojlari, yo'nalishlarning dolzarbligi hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish talablari inobatga olingan.

Baholash va monitoring tizimi, apellyatsiya jarayonlari hamda o'quvchilar murojaatlarini ko'rib chiqish mexanizmlari shaffoflik, xolislik va hisobdorlik tamoyillari asosida normativ hujjatlar bilan tartibga solingan.

Shu bilan birga, ayrim fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlarida mavzular va mashg'ulot turlari kesimida soatlar taqsimotini tizimlashtirish, ayrim dasturlarni to'liq va jadval ko'rinishida shakllantirish hamda metodik jihatdan takomillashtirish zarurati qayd etildi. Mazkur yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

4-bob. O'quvchilar faoliyati yo'nalishi

Ta'lim dasturlari bo'yicha qabul parametrlarini shakllantirish hamda o'quvchilar qabuli jarayonlarini tashkil etishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida zarur tashkiliy-huquqiy mexanizmlar joriy qilingan.

Mehnat bozori ehtiyojlari, hududiy va respublika miqyosidagi kadrlar talabi hamda tashkilotning strategik maqsadlari pedagogik kengash yig'ilishlarida muhokama qilinib, ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilingan.

O'quvchilarni qabul qilish, o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlatish tartiblarini belgilovchi nizom tasdiqlangan, qabul va apellyatsiya komissiyalari faoliyati yo'lga qo'yilgan hamda jarayonlarning ochiqligi, shaffofligi va adolatligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ta'lim tashkilotining rasmiy veb-sayti orqali muntazam yoritib borilmoqda. Mazkur yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Ta'lim tashkilotining rahbar va ma'muriy xodimlarining kasbiy salohiyati, malaka darajasi hamda faoliyatiga oid zarur ma'lumotlar shakllantirilgan, shtatlar jadvali ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan.

Pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj o'rganilib, pedagog kadrlar bilan ta'minlash rejalari ishlab chiqilgan hamda kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga yuborish bo'yicha reja-grafik mavjud, ilmiy daraja va amaliy tajribaga ega mutaxassislarni dars mashg'ulotlariga jalb etish amaliyoti yo'lga qo'yilgan, xodimlarning ilmiy-amaliy konferensiyalar, vebinarlar, seminar-treninglar va forumlarda ishtiroki ta'minlangan.

Biroq pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish, xalqaro malaka oshirish dasturlarini hujjatlashtirish hamda rejalashtirilgan tadbirlar ijrosi yuzasidan monitoring mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

Mazkur yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Ta'lim jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza, raqamli ta'lim muhiti, o'quv-metodik ta'minot hamda infratuzilma amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy ta'lim talablari asosida shakllantirilgan.

O'quv va laboratoriya xonalari fan yo'nalishlari hamda o'quvchilar kontingentidan kelib chiqib zamonaviy jihozlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia qurilmalari va laboratoriya uskunalari bilan ta'minlangan.

Raqamli ta'lim muhiti rivojlantirilgan bo'lib, LMS, EMIS tizimi, elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar hamda internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan.

Muassasa 1932 ta darslik, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va elektron resurslar bilan yetarli darajada ta'minlangan, xorijiy adabiyotlardan foydalanish, inklyuziv ta'lim hamda sport va dam olish infratuzilmasi uchun zarur shart-sharoitlar mavjud.

Shu bilan birga, ayrim yo'riqnomalarni takomillashtirish, laboratoriya xavfsizligi talablarini kuchaytirish, xonalarni qo'shimcha jihozlar bilan to'ldirish hamda Brayl materiallari va maxsus vositalar bo'yicha imkoniyatlarni kengaytirish tavsiya etildi. Mazkur yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim fanlar (adabiyot, o'zbek tili (rus guruhlar uchun), O'zbekiston tarixi, jahon tarixi, tarbiya, kimyo, algebra va analiz asoslari, ingliz tili) bo'yicha ishchi o'quv dasturlarida mavzular kesimida umumiy va auditoriya yuklamalari hamda mashg'ulot turlari bo'yicha soatlar taqsimoti jadval ko'rinishida aks ettirilmagan, biologiya fani dasturi to'liq shakllantirilmagan, ikkinchi xorijiy til (xitoy tili) bo'yicha dasturiy ta'minotning me'yoriy asoslari yetarli darajada hujjatlashtirilmagan;
- ✓ Ta'lim dasturlari tahlilida aniqlangan kamchiliklar va takomillashtirish zarur bo'lgan jihatlar bo'yicha batafsil tahlil yetarli darajada ochib berilmagan, fan dasturlarining amaliy mosligi bo'yicha ayrim jihatlar yetarlicha asoslanmagan;
- ✓ Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona fondidagi darsliklar, o'quv adabiyotlari va o'qitish materiallari to'liq raqamli formatga o'tkazilmagan hamda multimedia kontentlar bilan yetarli darajada boyitilmagan;
- ✓ Laboratoriya xonalaridagi jihozlardan foydalanish yo'riqnomalarida xavfsizlik texnikasi qoidalari, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish hamda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartiblariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan, rahbar va pedagog xodimlarning xalqaro malaka oshirish tadbirlari jadvali tasdiqlanmagan.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Ishchi o'quv reja va fan dasturlarini DTS talablari, yuqori turuvchi tashkilot tomonidan berilgan namunaviy hujjatlar hamda taklif va fikr-mulohazalarga muvofiq takomillashtirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularni pedagogik kengashda muntazam muhokama qilib borish;
- ✓ Chora-tadbirlar rejasi, istiqbolli reja hamda pedagog kadrlar bilan ta'minlash rejalarining ijrosini muddatlar va mas'ul ijrochilar kesimida tizimli monitoring qilib borish;

- ✓ Pedagog kadrlarning malaka oshirish va stajirovka dasturlarini tizimli rejalashtirish, kadrlar zaxirasini muntazam yangilab borish hamda malaka oshirish natijalarining ta'lim jarayoniga ta'sirini muntazam baholab borish;
- ✓ Fizika, kimyo va biologiya laboratoriya xonalarini yong'in o'chirgichlar, birinchi tibbiy yordam vositalari (apteчка) va qo'shimcha jihozlar bilan to'liq ta'minlash, xavfsizlik yo'riqnomalarini takomillashtirish hamda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishini doimiy nazorat qilish;
- ✓ Elektron kutubxona fondini multimedia kontentlar bilan boyitish, darslik va o'quv materiallarini raqamli formatda muntazam yangilab borish, raqamli ta'lim platformalari bilan integratsiyani kuchaytirish hamda Brayl alifbosiga mos resurslarni bosqichma-bosqich joriy etish;
- ✓ Qabul jarayonlarida onlayn ro'yxatdan o'tish tizimi va elektron murojaat (chat-bot) vositalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini takomillashtirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Ta'lim tashkilotida 3910002 – Aniq fanlar (matematika, xorijiy til) ta'lim dasturi bo'yicha o'tkazilgan o'rganish va tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv, me'yoriy-huquqiy, o'quv-uslubiy, kadrlar, moddiy-texnik, axborot-resurs va infratuzilmaviy shart-sharoitlar yaratilganligi aniqlandi.

Ta'lim dasturi, ishchi o'quv reja va fan dasturlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari hamda namunaviy o'quv dasturlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, fanlararo integratsiya, uzluksizlik va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga muvofiqligi ta'minlangan.

O'quv jarayonini tashkil etish, o'quv yuklamalarini rejalashtirish, bilimlarni baholash va monitoring qilish tizimi belgilangan tartibda yo'lga qo'yilgan; o'quvchilarni qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlatish jarayonlari amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etilgan bo'lib, qabul va apellyatsiya jarayonlarining ochiqligi, shaffofligi va xolisligi ta'minlangan.

Pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli hisoblanadi, kadrlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tashkilotning moddiy-texnik bazasi, o'quv va laboratoriya xonalari, raqamli ta'lim muhiti, elektron ta'lim resurslari hamda o'quv-metodik ta'minoti ta'lim dasturi


talablariga mos keladi, o'quv jarayonini xavfsiz tashkil etish bo'yicha zarur choralar ko'rilgan.

Shu bilan birga, laboratoriya xonalarini qo'shimcha jihozlar, yong'in o'chirgichlar va tibbiy qutilar bilan to'liq ta'minlash, sanitariya-gigiyena me'yorlariga to'liq rioya etish hamda ayrim fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlarida soatlar taqsimotini tizimlashtirish va metodik jihatdan takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim tashkilotining 3910002 – Aniq fanlar (matematika, xorijiy til) ta'lim dasturi bo'yicha faoliyati akkreditatsiya mezonlari, Davlat ta'lim standartlari va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

